Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda oilaviy mediatsiya instituti

Murodova Madinabonu Husniddin qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
E-mail: murodovamadinabonu20021511@gmail.com
F-

Annotatsiya: Mazkur tezisda rivojlangan xorijiy davlatlarda mediatsiya institutining huquqiy asoslari, qo‘llanilish amaliyoti va nizolarni muqobil hal etishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasining samarali jihatlari va ularni O‘zbekiston mediatsiya tizimida qo‘llash imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mediatsiya, mediator, nizolarni muqobil hal etish, mediatsiya instituti, xorijiy tajriba, nizolarni hal qilish, huquqiy tartibga solish.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda oilaviy mediatsiya instituti zamonaviy huquq tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan bo‘lib, u oilaviy-huquqiy nizolarni suddan tashqari tartibda, tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida hal etishga xizmat qiladi. Ushbu institut, avvalo, insoniy munosabatlarni saqlab qolish, nizolarni keskinlashtirmasdan hal etish hamda ayniqsa voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oilaviy mediatsiya sud muhokamasiga nisbatan yanada moslashuvchan, tezkor va iqtisodiy jihatdan samarali mexanizm hisoblanadi.

Oilaviy mediatsiya instituti XX asrning ikkinchi yarmida, xususan, 1960-yillarda AQSHda ilk bor qo‘llanilgan va 1970-yillarda G‘arbiy Yevropa mamalakatlariga jumladan, Buyuk Britaniyaga kirib kela boshlagan. Keyinchalik u Yevropa mamlakatlari, Kanada, Avstraliya kabi rivojlangan davlatlarda keng joriy etilib, mustahkam huquqiy asosga ega bo‘ldi. Hozirgi kunda ushbu mamlakatlarda mediatsiya nafaqat ixtiyoriy tartibda, balki ayrim hollarda majburiy bosqich sifatida ham qo‘llanilmoqda. Xususan, sudga murojaat qilishdan oldin tomonlarning mediatsiyada ishtirok etishi talab etilishi oilaviy nizolarni sudgacha hal etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda oilaviy mediatsiyaning huquqiy tartibga solinishi aniq va tizimli xarakterga ega. Yevropa Ittifoqida mediatsiya faoliyati maxsus direktivalar asosida tartibga solinadi va mediatsiya natijasida erishilgan kelishuvlar sud tomonidan tasdiqlangan taqdirda majburiy kuchga ega bo‘ladi. AQSHda esa mediatsiya shtatlar darajasida tartibga solinib, ayniqsa bolalar bilan bog‘liq nizolarda keng qo‘llaniladi. Buyuk Britaniyada esa sudga murojaat qilishdan avval mediatsiya bo‘yicha dastlabki maslahat uchrashuvi o‘tkazilishi majburiy hisoblanadi.

Oilaviy mediatsiya jarayoni rivojlangan mamlakatlarda muayyan bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Dastlab, mediator tomonlar bilan alohida yoki birgalikda uchrashib, nizoning mohiyatini aniqlaydi va mediatsiya shartlarini tushuntiradi. Shundan so‘ng tomonlar o‘z pozitsiyalarini bayon etadilar hamda mediator ularning o‘zaro muloqotini tashkil etadi. Muzokaralar davomida nizoni hal etishning turli variantlari ishlab chiqiladi va tomonlar uchun maqbul bo‘lgan yechim tanlanadi. Yakunda esa kelishuv hujjati rasmiylashtirilib, zarur hollarda sud tomonidan tasdiqlanadi. Rivojlangan davlatlar amaliyotida oilaviy mediatsiya turli shakllarda qo‘llaniladi. Xususan, klassik mediatsiya modeli bilan bir qatorda co-mediatsiya, ya’ni ikki mediator ishtirokidagi jarayon ham keng tarqalgan. Bunda odatda bir mediator huquqshunos, ikkinchisi esa psixolog bo‘ladi, bu esa nizoni kompleks tarzda hal etish imkonini beradi. Bundan tashqari, advokatlar ishtirokidagi mediatsiya ham mavjud bo‘lib, unda tomonlar huquqiy maslahatlar asosida qaror qabul qiladilar. So‘nggi yillarda esa raqamli texnologiyalar rivoji natijasida onlayn mediatsiya shakli ham keng qo‘llanila boshladi. Xususan, 2021-yilda pandemiya sharoitida nizolarni hal etishda yangi yondashuv – onlayn mediatsiya tizimi keng joriy etildi[1]. Oilaviy mediatsiya rivojlangan mamlakatlarda, asosan, nikohdan ajralish, bolalar vasiyligi, aliment undirish, mulkni taqsimlash kabi nizolarni hal etishda qo‘llaniladi. Ayniqsa, bolalar

[1] D.Xudoynazarov. OILAVIY NIZOLARDA MEDIATSIYA . (2026). YURISPRUDENSIYA , 5 (3), 111-124.

manfaatlariga bevosita daxldor masalalarda mediatsiya samarali vosita sifatida e’tirof etiladi, chunki u ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni saqlab qolishga yordam beradi.

Shu bilan birga, transchegaraviy oilaviy nizolarda ham mediatsiya muhim rol o‘ynaydi. Mazkur institutning afzalliklari ko‘plab rivojlangan davlatlar tajribasida o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan, mediatsiya sud jarayoniga nisbatan tezroq va kam xarajatli hisoblanadi, tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni saqlab qoladi hamda kelishuv asosida erishilgan yechimlar ko‘proq barqaror bo‘ladi. Shu bilan birga, mediatorning betarafligi va jarayonning maxfiyligi tomonlar o‘rtasida ochiq muloqotni ta’minlaydi.

Biroq oilaviy mediatsiya institutining ayrim muammolari ham mavjud. Jumladan, tomonlar o‘rtasidagi kuchlar tengsizligi, mediator malakasining yetarli darajada bo‘lmasligi yoki majburiy mediatsiya samaradorligining har doim ham yuqori bo‘lmasligi kabi omillar uning natijadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunga qaramay, rivojlangan mamlakatlar ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida mediatorlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va mediatsiya standartlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratmoqda. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda oilaviy mediatsiya instituti samarali huquqiy mexanizm sifatida shakllangan bo‘lib, u oilaviy nizolarni insonparvarlik tamoyillari asosida hal etishga xizmat qiladi. Ushbu tajriba mediatsiyaning huquqiy tizimdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, shuningdek, nizolarni sudgacha hal etish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Ko‘plab xorijiy mamalakatlarda mediatsiyaning aynan oilaviy nizolarni hal etishga qaratilgan – family-focused approach modeli qo‘llaniladi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlardagi nizolarning qariyb 80 foiz qismi aynan mediatsiya vositasida hal qilinadi. E’tibor berishimiz kerakki, oilaviy–huquqiy nizolarning barcha turlariga nisbatan ham mediatsiyani joriy qilib bo‘lmaydi.

Oilaviy-huquqiy nizolarning meros, bolalar tarbiyasi, nikohdan ajralish, bolaning ism-familiyasini belgilash bilan bog‘liq nizolar va hokazolar mediatisya orqali hal qilinishi mumkin bo‘ladi. Oilaviy zo‘ravonlik, majburiyatini bajarmaslik, tazyiq o‘tkazish kabi holatlarda mediatsiya institutini qo‘llashmumkin emas deb hisoblayman. Chunki bunday holatlarda oila a’zosining hayoti, sha’ni yoxud huquqi ochiqdan-ochiq poymol qilinadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiya instituti tobora keng qo‘llanilmoqda va u sud tizimiga muqobil, samarali mexanizm sifatida shakllanib bormoqda. Xususan, zamonaviy sharoitda nizolarni hal qilishning innovatsion shakllaridan biri sifatida onlayn mediatsiya tizimining joriy etilishi ushbu institutning rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ko‘plab xorijiy davlatlarda jumladan, AQSHning ko‘plab shtatlarida nikohdan ajralishdan so‘ng bolalar tarbiyasi va bolalarga nisbatan vasiylik masalalari bilan bog‘liq nizolar majburiy mediatsiya orqali hal qilinmoqda.

Buyuk Britaniya tajribasida oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Buyuk Britaniyada oilaviy-huquqiy nizolar majburiy mediatsiya tartibida ko‘rib chiqilishi belgilangan. Bu yerda majburiy mediatsiya deyilganda mediativ kelishuvga erishish majburligi emas balki, taraflarga oilaviy nizo bo‘yicha mediatsiya qilib ko‘rish majburiyati nazarda tutiladi. Buyuk Britaniyada mediatsiya jarayonining maxfiyligi mediator va nizolashgan taraflar o‘rtasidagi kelishuv asosida tartibga solinadi. Ya’ni ushbu davlatda sudga murojaat qilishdan avval nizoni mediatsiya orqali hal etishga urinish majburiy bosqich sifatida belgilangan. Bunda mediatsiya jarayonining maxfiyligi taraflar va mediator o‘rtasidagi kelishuv asosida ta’minlanadi, bu esa jarayonga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Shu bilan birga, advokatlar bevosita mediator sifatida faoliyat yurita olmaydi, biroq ular ayrim hollarda tomonlar roziligi asosida mediativ kelishuv tuzishda ishtirok etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Xudoynazarov. OILAVIY NIZOLARDA MEDIATSIYA . (2026). YURISPRUDENSIYA , 5 (3), 111-124.
2. Nizolarni muqobil hal etish usullari: o’quv qo’llanma. Salimova Iroda Mamayusufovna. – Toshkent: TDYU, 2022. 7-43-betlar.

3. Nizolarni muqobil hal etish usullari: darslik Xaqberdiyev Abdumurod Abdusaidovich, Mamasiddiqov Muzaffar Musajonovich –T.: TDYU nashriyoti, 2025. 15-71-betlar.